



**MODELS AND METHODS FOR  
INCREASING THE EFFICIENCY OF  
INNOVATIVE RESEARCH**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE**

**CONFERENCE**



**ISOC**

INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES

[WWW.INTERONCONF.COM](http://WWW.INTERONCONF.COM)

**GERMANY**

**2024**

# **PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS**

**PART 33  
FEBRUARY 2024**

**Collection of Scientific Works**

**BERLIN 11 APRIL 2024**

**ISBN 978-955-3605-86-4**

© Sp. z o. o. "CAN", 2024

© Authors, 2024

**MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH:** a collection scientific works of the International scientific conference (11 April 2024) - Berlin:2024. Part 33 – 327 p.

Editorial board:

**Alexander Dietrich**

ICRA 2021 Editors  
German Aerospace Center (DLR)  
Oberpfaffenhofen, Germany

**Davide Scaramuzza**

ICRA 2021 Editors  
University of Zurich  
Zurich, Switzerland

**Tomohiro Kawahara**

ICRA 2021 Editors  
Kyushu Institute of Technology, Frontier  
Research Academy for Young Researchers  
Fukuoka, Japan

**Barbara Caputo**

ICRA 2020 Editors  
Sapienza Rome University  
Rome, Italy

**Jana Kosecka**

ICRA 2021 Editors  
George Mason University,  
Fairfax (VA), USA

**Wolfram Burgard**

ICRA 2018 Editors  
Toyota Research Institute and University of  
Freiburg  
Freiburg, Germany

Languages of publication: Deutsche, English, Русский, Limba română, uzbek.

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference " MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH ". Which took place in BERLIN on 11- April, 2024.

Tagungsbände werden für Wissenschaftler und Lehrende an Hochschulen empfohlen. Sie können in der Ausbildung eingesetzt werden, einschließlich der Lehre im Aufbaustudium, der Vorbereitung auf den Erwerb von Bachelor-und Master-Abschlüssen. Die Begutachtung aller Artikel wurde von Experten durchgeführt, die Materialien unterliegen dem Copyright der Autoren. Für Inhalt, Prüfungsergebnisse und Fehler sind die Autoren verantwortlich.

<b>Haydarova Kamola</b> <i>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI</i>	<b>179</b>
<b>Сабирова Кимёхон Кудратовна</b> <i>ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ</i>	<b>184</b>
<b>Qo'ysinova Gavxar Xaydaraliyevna</b> <i>"TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLAR VA PSIXOLOGIK METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI"</i>	<b>190</b>
<b>To`rayeva Umriniso Rahmatovna</b> <i>SELF-EDUCATION IN NAVOI'S WORK</i>	<b>194</b>
<b>Maxbuba Muxammadova</b> <i>HASANXOJA NISORIY IJODIDA NAVOIYGA MUNOSABAT</i>	<b>202</b>
<b>Turaeva Laylo Omonovna</b> <i>A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE</i>	<b>212</b>
<b>O`roqova Nafosat Yoriyevna</b> <b>Vayisova Barnoxon Rashid qizi</b> <i>ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA FLORISTIK OBRAZLAR TALQINI ( YUSUF SHOMANSUR, RAUF PARFI, XURSHID DAVRON, HAMDA IQBOL MIRZO IJODIDA)</i>	<b>220</b>
<b>Sodiqova Dilorom Tursunovna</b> <i>BUXOROLIK ZULLISONAYN SHOIRA</i>	<b>229</b>
<b>Norxudjayeva Sotqinoy Abdullayevna</b> <i>MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH</i>	<b>238</b>
<b>Salohiddinova Farangiz Abror qizi</b> <i>TEZKOR -QIDIRUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRUVCHI ORGANLARGA KO'MAKLASHAYOTGAN SHAXSLARNI HAMDA ULARNING OILA A'ZOLARINI IJTIMOYIY-HUQUQIY JIHATDAN HIMOYA QILISH HAMDA HOZIRGI KUNDA TEZKOR-QIDIRIV FAOLIYATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHATLAR NING HUQUQIY AHAMIYATI.</i>	<b>244</b>





**ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA FLORISTIK OBRAZLAR TALQINI ( YUSUF SHOMANSUR, RAUF PARFI, XURSHID DAVRON, HAMDA IQBOL MIRZO IJODIDA)**

**O`roqova Nafosat Yoriyevna,**

Buxoro davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD),

[n.y.uroqova@buxdu.uz](mailto:n.y.uroqova@buxdu.uz)

ORSID: 0000-0003-4665-3325

**Vayisova Barnoxon Rashid qizi**

*BUXDU Filologiya va tillarni o`qitish: o'zbek tili  
1- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida floristik obrazlar talqinida shoir va shoirlar she'riyatidagi o'ziga xos tabiat obrazlari haqida so'z boradi. Bunda Yusuf Shomansur, Rauf Parfi, Xurshid Davron hamda Iqbol Mirzoning eng sara ijod namunalari asosida floristik obrazlarni ochib berishga harakat qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy o'zbek she'riyati, floristik obraz, tabiat, o'xshatish, talqin, ifoda, Yusuf Shomansur, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Iqbol Mirzo.*

**KIRISH:** She'riyat asrlar davomida rivojlanib, tobora sayqallashib borayotgan adabiy hodisadir. Zamonaviy o'zbek adabiyotida lirik tur janrlarining jahon adabiyoti yo`nalishlaridan andoza olganligi hamda sintezlashuv jarayonlarini o`taganligini kuzatishimiz mumkin. Binobarin, bu davr adabiyotida olamning badiiy manzarasini yangicha anglash tamoyillari shakllandi. Bu jarayon o`zbek adabiyotining badiiy imkoniyatlarini cheksiz darajada kengaytirib yubordi. Jahon adabiyoti namunalarning o`zbek tiliga tarjima qilinishi ichki imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Yangicha badiiy tafakkurning maydonga kelishi esa qator iste`dodlarning yuzaga chiqishiga turtki berdi. Mana shunday taraqqiyot bosqichlarida toblangan yuksak mahorat egalarining dunyoning badiiy manzarasini ifodalashda turlicha ohorli timsollardan foydalanishgani badiiy asarlar salmog`ining oshishida muhim rol o`ynadi.

**ASOSIY QISM:** Floristik obrazlar har bir shoir ijodida muhim ahamiyatga ega. Bugungi o'zbek zamonaviy she'riyatining yorqin namoyondasi Yusuf Shomansur she'rlarida mazkur obrazlarni uchratishimiz mumkin:

Atirgul novdasi



Tiniq shishada

Tiniq suvda nozik ildiz chiqardi.

Uni ko'rgan sarim aqlim shoshadi,

Tasavvur etaman uyda gulzorni.

Cho'g'day g'unchalarni uzib xayolan

Kimgadir xayolan qilaman sovg'a.

Bahramand bo'larkan nurdan, ziyodan,

Atirgul ildizi yashnadi suvda.

She'r, avvalo, gul nomi bilan boshlangan. So'zlar chiroyli tanlangan va tinish belgilariga e'tibor qaratilgan. Shakli ham erkinlikni ko'rsatib turibdi. Shoir tasavvurida uyida gulzor yaratish orqali uni yana kimlargadir hadya qilishni ham xohlaydi. G'unchalarni qizil cho'g'ga o'xshatishi juda qiziq holat. Bu erkka tashna, ozodlikka bag'ri ochiq inson timsolini gavdalandiradi. Keyinchalik atirgul ildizlari yerga emas, balki suvga solingani oqibatida ildizlari qurib qolishi shoirga alam qiladi:

Oxiri ildizlar o'sib, ko'payib,

Billurday shishaga borib taqaldi.

Shunda, ildizchalar birdan sarg'ayib,

Novda yashilligi, ko'rki yo'qoldi...

Xonamda mo'l toza havo, toza nur

Ildizlar buncha tez qurib, so'lmasa?

Ha, har qanday hayot yozolmas tomir

Jindakkina qora tuproq bo'lmasa.

Jamiki tirik jonzotlar, qolaversa, insoniyat umri davomida xuddi shu atirgul singari o'z tuprog'ini qidiradi. Misralardagi tuproq ramziy obraz bo'lib, u Vatan, ona Yer, tug'ilib-o'sgan yurt ma'nolarini ifodalab kelgan.

"Sirlar shoiri" deya nom olgan Rauf Parfi ijodida nabotot olami manzaralari markaziy o'rinda turadi:

G'unchalar pushtirang va za'far

Zangori yaproqlar shahrida

G'unchalar orzumdek har safar

G'unchalar qalbimning bag'rida.

Bu satrlar bilan shoir g'unchalarni, ya'ni hali ochilib ulgurmagan gullarni insonning yoshligiga o'spirinlik davrlariga qiyoslaydi. Ularni zangori yaproqlar shahrida tasavvur qilishi esa ramziy mazmun-mohiyat kasb etgan bo'lib, bu o'rinda shoir rang ramziga murojaat qilgan. Ya'ni sariq rang olov ramzi sanalib, bunda yoshlik inson umrining eng jo'shqin bosqichini bildiradi. Demak, misralarda lirik



qahramonning botinida hali ushalmagan orzulari borligi, yangi serqirra ijodi yanada yuksalishiga belgi bor.

Hozirgi adabiy jarayonning faol ijodkorlidan biri Xurshid Davron ijodiga yuzlansak, uning she'rlarida ham flora dunyosi bilan aloqador juda rang-baranglikni ko'rish mumkin. "Daraxtzor qoshiga kelar bir ayol" she'rida daraxtlar obrazi go'zal tasvirlangan:

Tunda silkitarkan daraxtni shamol,  
Daraxtlar titrarkan mahzun, bukchayib,  
Daraxtzor qoshiga kelar bir ayol,  
Nozik oyoqlarin shabnamga chayib.  
U gullar sochadi hovuch-hovuchlab,  
Hayratga to'ladi armonli bog'lar.  
U kuylay boshlasa, gullarni tishlab  
Uyg'ona boshlaydi qurigan shoxlar.

Shoir daraxtlarning titrashini jonlantirish badiiy san'ati orqali tasvirlagan. Ayolning shabnamga oyoqlarini chayishi tasviri shoirning tabiat xilqatlarini nozik anglab, uni mahorat bilan tasvirlaganidan darak beradi. Ayol esa tabiat bilan hamnafas bo'lib, kuy orqali gullarni tishlaganini sezmay qolishi oqibatida, hattoki qurigan daraxt shoxlari ham uyg'onishini ta'kidlab o'tgan. Chindan ham bunday jonli, ohorli badiiy tasvirlarni floristik obrazlar vositasida yaratish haqiqiy, iste'dodli shoirlarga xosdir.

Shoirlar ijodida floristik obrazlar uchrashi qalbning tabiatga oshnoligidan dalolat beradi. Har qanday ijodkor tabiatda mavjud fauna va flora olamiga daxl qilishi tabiiy. Zamonaviy adabiyotimizning yorqin vakillaridan biri Iqbol Mirzo ijodida ham floristik tasvirlar ko'plab uchraydi:

Bir kuni daraxtni tark etar yaproq,  
Yalang'och novdalar titrar asabiy.  
Visol oqibati hijrondir, biroq,  
Faqat biz birgamiz, jonim, abadiy.

Misralarda har bir narsa visolga yetishgach, hijron uni qarshilashi tabiiyligi g'oyasi ilgari surilgan. Kuzatamizki, visol oqibati hijronda qiynalishni shoirning xohlamasligi namoyon bo'ladi: bir kun daraxtni yaproq tark etganda ham, novdalar yalang'och qolib asabiy titraganda ham, faqat biz abadiy birga bo'lamiz, deid lirik qahramon. Misralarda jonlantirish, sifatlash, tazod kabi qator badiiy san'atlarni qo'llash orqali she'rning badiiy mukammal chiqishi ta'minlangan.

**XULOSA:** Olamning badiiy manzarasini ifodalashning turli usullari mavjud bo'lib, shulardan biri bu – floristik obrazlarga murojaat qilishdir. Nabotot bilan bog'liq



timsollarni ramziy ma'nolarda qo'llash usuli qadimdan mavjud. Bu kabi xususiyatlarni folklor asarlarida ham, mumtoz adabiyotimiz namunalarda ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Yangi o'zbek adabiyotida floristik obrazlarning ramziy-timsoliy ma'nolari yangicha mohiyat kasb etdi. Binobarin, zamonaviy adabiyotda asosiy urg'u obrazlar tadrijiga qaratildi. Buni zamonaviy o'zbek she'riyati namoyondalarining ijodi misolida dalillash mumkin.

#### ADABIYOTLAR:

1. O'roqova, N. (2024). ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA RAMZIY-FLORISTIK OBRAZLAR IFODASI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(3), 193-199.
2. O'roqova, N. (2024). SADRIDDIN AYNIY USLUBIGA DOIR SHIZGILAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 47(47). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/12188](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12188)
3. O'roqova N. О 'ZBEK SHE'RIYATIDA KAPALAK OBRAZI TALQINI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 47. – №. 47.
4. Yorievna, U. N. ., & Ikhtiyar's , K. N. . (2024). National Portrait in Otkir Hashimov's Stories. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 831–837. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1923>
5. Nafosat, U., & Quvvatova, D. (2019). An untraditional description style in the epos of Ikrom Otamurod. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 8(5 Special Issue 3), 396-399.
6. Uroкова, N. (2019). GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES. *Theoretical & Applied Science*, (8), 57-59.
7. Uroкова, N. (2022). MASNAVI IN MODERN UZBEK PROSE. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(3), 63-65.
8. Yorievna, U. N. (2022). Masnavi Genre in Uzbek Classical Poetry: Nature, Genesis, Features. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 67-70.
9. Yoriyevna, U. N. (2023). THE ORIGINALITY AND GENESIS OF ANIMAL SYMBOLISM IN POETRY. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 18, 20-23.
10. Уракова, Н. (2019). Стиль писателя в современных узбекских поэмах. *International scientific review*, (1 (41)), 26-28.





11. Uroкова, N. (2019). GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES. *Theoretical & Applied Science*, (8), 57-59.
12. O'roqova, N. (2019). So'nggi yillar o'zbek dostonchiligida ijodkor uslubi va individualligi (I. Otamurod va U. Qo'chqor dostonlari asosida). *Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi*, Qarshi, 2019. B, 21
13. Yoriyevna, U. N. (2023). RELATIONSHIPS BETWEEN HUMANS AND ANIMALS. *Confrencea*, 8(1), 123-126.
14. Yorievna, U. N. ., & Ikhtiyar's , K. N. . (2024). National Portrait in Otkir Hashimov's Stories. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 831–837. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1923>
15. O'roqova , N. . (2022). O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATIDA MASNAVIY JANRI TABIATI, GENEZISI, XUSUSIYATLARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(10), 38–42. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/4041>
16. Raxmatovna T. U., Zaripovna R. R. Study of Begali Kasimov's Activity in Literary Studies and Scientific Biography of the Scientist // *Journal of Survey in Fisheries Sciences*. – 2023. – Т. 10. – №. 2S. – С. 3454-3459.
17. Toraeva U. R. Definition and research methods of Uzbek modern literature // *Current research journal of philological sciences*. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 104-107.
18. Turaeva U. R. Determination of characteristics of uzbek jadid schools and literature // *наука и инновации в хxi веке: актуальные вопросы, открытия и достижения*. – 2021. – С. 154-156.
19. Rakhmatovna T. U. UDC: 82.09. 575.1 Literary critic begali kasimov is a researcher of modern literature // *scientific reports of bukhara state university*. – С. 114.
20. Rakhmatovna T. U. Research of heritage of representatives of uzbek literature of the period of national renaissance // *principal issues of scientific research and modern education*. – 2022. – Т. 1. – №. 7.
21. Torayeva U. The Tatar press and Turkestan Jadidism In The researches of Begali Kasimov // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*. – 2021. – Т. 8. – №.
22. Torayeva U. O'zbek jadid adabiyoti va jahon ijtimoiy-adabiy harakatchiligi masalasining tadqiq etilishi // *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 206-211.



23. Raxmatovna T. U. Study of Begali Kasimov's Activity in Literary Studies and Scientific Biography of the Scientist //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 869-875.
24. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – Т. 3. – №. 3.
25. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.
26. Tursunovna S. D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 14.
27. Sodikova D. T. GLIMPSES TO FEMININE LITERATURE DURING THE DYNASTY OF BUKHARA EMIRATE: ALL ABOUT A POETESS MUSLIKHABEGIM MISKIN AND HER LITERARY HERITAGE //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 174-176.
28. Sodikova T. D. Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
29. Содикова Д. Т. ПРОБЛЕСКИ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ВСЕ О ПОЭТЕССЕ МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН И ЕЕ ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ //ББК 81.632 А43. – С. 174.
30. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetes during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.
31. Садикова D. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
32. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.
33. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.



34. Садикова D. The Expression of Muslikha begim Miskin's Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.

35. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.

36. Садикова D. The Expression of Muslikha begim Miskin's Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.

37. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetes during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.

38. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 629-634.

39. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. *IMRAS*, 7(1), 779-783.

40. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(24), 22-25.

41. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(22), 66-70.

42. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(22), 66-70.

43. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадий талқини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).

44. To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 7(7).


45. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – S. 47-49.



46. Saidahmedovna, Uraeva Darmon, and RustamovaGavharBahronQizi. "Beliefs About the" Tree of Life" in Uzbek Folklore." *MiddleEuropeanScientificBulletin* 8 (2021).
47. Darmon U., Rano R., Dilshod R. The Stylization of Prose Tales in Uzbek Children's Literature //Religación. – T. 4. – S. 170-174.
48. Saidakhmedovna, U. D., & Abdumalikovna, T. D. (2023). Ceremonial Dishes in Uzbek Language. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 15, 35-38.
49. Saidakhmedovna, U. D. (2022). Artistic Interpretation of Guests and Hospitality in Uzbek Literature. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 155-157.
50. Oxunjonovna, S. H. The crow, the owl, the raven, the slice, which turned your flowers.(one of the example create of Samandar Vohidov). *IEJRD-International Multidisciplinary Journal*, 6, 211-216.
51. Oxunjonovna, H. S. (2022). Parents Double Wings to the Child. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
52. Urayeva, D., & Nazarova, G. (2021). Comparative analysis of mythological names and mythologisms in the english and uzbek literature. *Philology Matters*, 2021(1), 3-21.
53. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – C. 4753-4767.
54. Muhammadova M. HUMOYUN MIRZO NISORIY TALQINIDA: Mahbuba Muhammadova Termiz davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
55. Mahbuba M. Nisoriyning" Muzakkiri ahbob" tazkirasida ayrim janr va badiiy san'atlar xususiyati //Karabük-2020.
56. Mo'minovna M. M. SECTION: HISTORY SCIENCE //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2019. – C. 29.
57. Mo'minovna M. M. NISORIY DO 'ST MUHAMMAD SULTON VA UNING IJODKOR SIFATIDAGI QIRRALARI HAQIDA //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – T. 3. – №. 29. – C. 348-350.
58. Makhbuba M. Muzakkiri Ahbob" Fable By Nisari And Its Role In Literature Studies //European Journal of Business and Social Sciences. – 2019. – T. 7. – №. 10. – C. 111-116.







59. Sanobar A., Mahbuba M. O'LMAS UMARBEKOVNING"ODAM BO'LISH QIYIN"ASARINING BADIY TAHLILI //ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 74-80.

